


2020- yil yakuni



## SIRDARYO VILOYATI SO‘G‘LIQNI SAQLASH TO‘G‘RISIDA TAHLILY MATERIAL



*Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi*



**Tibbiyot muassasalari tarmog'iga** shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

**Shifoxona muassasasi** – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

**Aholining kasallanishi** yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.



## SIRDARYO VILOYATIDA 2020- YIL YAKUNIGA KO'RA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, Sirdaryo viloyati 42 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 33,3 % i (14 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami shifoxonalar soni 2019- yilga nisbatan 10,7 % ga (3 taga) kamaygani.

**Ma'lumot uchun:** ► **Shifoxona** — statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'liqni saqlash muassasasi hisoblanadi

► **Ambulatoriya-poliklinikalari** ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko'rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o'tkazadigan sog'liqni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.




## Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan davolash- profilaktika muassasalarini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (birlik)



2020- yil yakuniga ko'ra, Sirdaryo viloyatida 157 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 33,7 % i (53 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya-poliklinikalari soni bir yil mobaynida 3,2 % ga (5 taga) ko'paydi.



## 2020- yil yakuniga ko'ra respublikada faoliyat yuritayotgan shifoxona va ambulatoriya-poliklinikalari soni (birlik)





Tumanlar kesimida faoliyat barcha mulkchilik shaklidagi yuritayotgan shifoxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahri, (19 ta) Yangiyer shahri (7 ta), Sirdaryo tumani (3 ta) hamda Mirzaobod tumanlari (3 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa tumanlarga nisbatan shifoxonalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Oqoltin tuman (1 ta) hamda Boyovut tumanlarida (1 ta), kuzatilmoqda.

Shuningdek, barcha mulkchilik shaklidagi faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahri (39 ta), Sirdaryo tumanida (24 ta), Sayxunobod (15 ta), Boyovut (15 ta), Xovos (12 ta) hamda Mirzaobod tumanlari (12 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa tumanlarga nisbatan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Shirin shahar (3 ta) va Oqoltin tumanlarida (7 ta) kuzatilmoqda.



2020- yil yakuni



**Tumanlar bo'yicha 2020- yil mobaynida  
shifoxona muassasalarida  
davolangan bemorlar soni  
(ming, kishi)**

Sirdaryo viloyati.

325,3

15,1

Guliston

Guliston sh

129,2

16,1

Mirzaobod

Shirin sh

18,8

16,0

Sayxunobod

Yangiyer sh

31,5

16,5

Sardoba

Oqoltin

13,4

27,0

Sirdaryo

Boyovut

19,8

21,9

Xovos

2020- yil ohirida Sirdaryo viloyatda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni 325,3 ming kishini tashkil etib, tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrga to'g'ri keldi va uning soni 129,2 ming kishi ekanligi qayd etildi. Eng kam ko'rsatkich esa Shirin shahriga to'g'ri keldi ya'ni 18,8 ming kishini tashkil etdi.






2020- yil yakuni



**Sirdaryo viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni (2020- yil ohirida, birlik)**



2020- yil oxirida Sirdaryo viloyatida shifoxona muassasalarining bemor o'rinlari soni 4036 birlikni tashkil etib, tumanlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahriga to'g'ri keldi ya'ni 1793 birlikni tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Shirin shahriga to'g'ri keldi ya'ni 83 birlikni tashkil etdi.



2020- yil yakuni




## Sirdaryo viloyatida tumanlari kesimida shifoxonalar va bemor o'rinlari soni

(2020- yil yanvar-dekabr)



4,0

Shifoxonalarda bemor o'rinlar soni, ming birlik



0,5

Kichik korxonalar va mikrofirmalardagi bemor o'rinlar soni, ming birlik



4,6

10 000 aholiga nisbatan bemor o'rinlari soni



2020- yilda Sirdaryo viloyati bo'yicha shifoxonalarda jami 4,0 mingta bemor o'rinlari foydalanishda bo'lgan, shundan 12,5 % i (0,5 mingtasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlarga tegishli. 10 000 aholiga nisbatan bemor o'rinlari soni 4,6 tani tashkil etmoqda.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'lim

tel.: (67) 236-86-26